

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-1



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№SI-1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук (DSc), профессор

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук (DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>Кириш сўзи</b> .....	6
<b>1. Xolbekov Abdug‘ani</b> KOLONIALIZMNING IJTIMOIIY QIYOFASI (TURKIY XALQLARNING ISTILO QILINISHI MISOLIDA).....	9
<b>2. Убайдуллаева Раиса</b> ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ И ПРАКТИКА ПРИМЕНЕНИЯ.....	17
<b>3. Сеитова Зухрагон</b> ОТРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ КРАСОТЫ В ПОЭЗИИ ПОЭТОВ-СУФИСТОВ.....	24
<b>4. Alikariyeva A‘loxon</b> TA‘LIM SIFATI BOSHQARUVI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA TURLI YONDASHUVLAR TAHLILI.....	34
<b>5. Mo‘minov Zokirjon</b> TASHQI MIGRATSIYA: DAVLATLARNING INTEGRATSIYA SIYOSATI (BUYUK BRITANIYA MISOLIDA).....	40
<b>6. Ходжаев Собир</b> ИНДЕКС АКТИВНОГО СТАРЕНИЯ И ЗАНЯТОСТЬ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	46
<b>7. Абдувалиева Мумтозхон</b> СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И БАРЬЕРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИ ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	55
<b>8. Burxanov Xusniddin</b> MILLIY SAYTLAR MODERNIZATSIYALASHUVINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	66
<b>9. To‘raxo‘jaeva Ra‘no</b> AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI YUZAGA KELISHIDA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING O‘RNI.....	73
<b>10. Nematova Dilfuza</b> KAMBAG‘ALLIKNI O‘RGANISHDAGI ILMIY NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	78
<b>11. Eshmanova Iroda</b> TRENDS IN CHANGES IN THE NATIONAL MENTAL CHARACTERISTICS OF UZBEK YOUTH IN MIGRATION CONDITIONS.....	87
<b>12. Teshayev Doniyor</b> OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISH BO‘YICHA MEDIATORLAR TAYYORLASH YO‘NALISHLARI.....	94
<b>13. Pخomov Umrbek</b> O‘ZBEKISTON MAHALLALARIDA YOSHLARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI.....	100
<b>14. Nurqulov Bunyod</b> YOSHLAR SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI.....	106
<b>15. Qobilov Uchqun</b> DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH UYG‘UNLIGI.....	114

<b>16. Izzatulloeva Kamilla</b> IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF ANTI-CORRUPTION EFFORTS IN THE SOCIAL SPHERE OF UZBEKISTAN.....	120
<b>17. Burxanov Xusniddin</b> AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	128
<b>18. Imomova Nozimaxon</b> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI SUBYEKTLARI SA'I-HARAKATLARINING MOTIVATSION TAVSIFI.....	135


# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Qobilov Uchqun,**

О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Davlat boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti

### DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH UYG‘UNLIGI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16423495>

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyatida milliy o‘zlikni anglashning ahamiyati hamda uning kasbiy komillikka erishish jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Milliy o‘zlik — shaxsning o‘z xalqiga, tarixiga, urf-odat va qadriyatlariga munosabati orqali shakllanadigan ijtimoiy ong shakli bo‘lib, davlat xizmatida faoliyat yuritayotgan shaxslar uchun bu tushuncha faqat madaniy-ma’naviy qadriyat emas, balki kasbiy mezon darajasida ko‘rilmoqda. Maqolada milliy o‘zlikni anglash va kasbiy komillik tushunchalarining mazmun-mohiyati yoritilib, ularning o‘zaro aloqadorlik jihatlari ilmiy-nazariy asosda tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** demokratik huquqiy davlat, milliy o‘zlik, davlat xizmati, davlat xizmatchilari, kasbiy komillik, adolat mezon, odob-axloq, halollik.

**Кобиллов Учкун,**

базовый докторант Академии государственного  
управления при Президенте Республики Узбекистан

### ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ И СООТВЕТСТВИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

#### АННОТАЦИЯ

В статье анализируется значение осознания национальной идентичности в профессиональной деятельности государственных служащих и его роль в процессе достижения профессионального совершенства. Национальная идентичность – форма общественного сознания, формирующаяся через отношение человека к своему народу, истории, традициям и ценностям. Для тех, кто работает на государственной службе, это понятие рассматривается не только как культурная и духовная ценность, но и как профессиональный критерий. В статье раскрывается сущность понятий «национальная идентичность» и «профессиональное совершенство», на научно-теоретической основе анализируются аспекты их взаимосвязи

**Ключевые слова:** демократическое правовое государство, национальная идентичность, государственная служба, государственные служащие, профессиональное совершенство, стандарт справедливости, этика, честность.

**Kobilov Uchkun,**  
Doctoral student of the Academy  
of Public Administration under  
the President of the Republic of Uzbekistan

## PROFESSIONAL COMPETENCE OF CIVIL SERVANTS AND CONFORMITY WITH NATIONAL IDENTITY

### ABSTRACT

This article analyzes the importance of national identity in the professional activities of civil servants and its role in the process of achieving professional perfection. National identity is a form of social consciousness formed through a person's attitude to his people, history, customs and values, and for persons working in the civil service, this concept is seen not only as a cultural and spiritual value, but also at the level of a professional criterion. The article sheds light on the content and essence of the concepts of national identity and professional perfection, and their interrelations are analyzed on a scientific and theoretical basis.

**Keywords:** democratic legal state, national identity, civil service, civil servants, professional perfection, criterion of justice, etiquette, honesty.

### KIRISH

Davlat va jamiyat boshqaruvida davlat xizmatchilari muhim o'rin egallaydi. Ularda milliy o'zlikni anglash hamda kasbiy komillikni yuksaltirish bugungi kunda dolzarb masallardan biri bo'lib kelmoqda. Buning asosiy sababi sifatida bugungi kunda milliy o'zlikni anglagan davlat xizmatchilariga bo'lgan ehtiyojning ko'pligida. Hozirgi kundagi globallashtirish sharoitida, davlat xizmatchilariga bo'lgan talablar ham ortib borayotgan bir paytda, davlat xizmatchilarning nafaqat kasbiy, balki ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### METODOLOGIYA

Mamlakatimizda davlat boshqaruvini takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar jara'ida davlat xizmatchisida "kasbiy mahorat va madaniyatni oshirish, har qanday holatda ham qonun, adolat, insonparvarlik tamoyillariga asoslanib ish k'rish" [1, – B.63] konseptual asos sifatida belgilandi" [2, – B.290-291].

Shu nuqtai nazardan, davlat xizmatchilarida milliy o'zlikni anglash va kasbiy komillik uyg'unligini ta'minlash jamiyat taraqqiyoti hamda davlat boshqaruvining samaradorligi uchun muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Biz bilamizki, O'zbekiston bugungi kunda o'ziga xos milliy demokratik huquqiy hamda ijtimoiy davlat hisoblanadi. Shunga mos javob beradigan ravishda davlat xizmatini ham tashkil qilish vazifasini keltirib chiqardi. Talabga mos ravishda javob beradigan davlat xizmatchilarini shakllantirish ularda milliy o'zlikni yuksaltirish, vatanga bo'lgan muhabbatni kuchaytirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shunday asoslandi: "Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta y'zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tay'rlash b'ycha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat y'zgarishi yuz bermaydi" [3, – B.55].

### ASOSIY QISM

Davlat xizmatchilarida aynan milliy o'zlikni anglash tushunchasi va uning ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, aslida milliy o'zlikni anglash – bu shaxsning o'z tarixiy ildizlariga, madaniy merosiga, tili va mentalitetiga bo'lgan hurmatini ifodalovchi tushuncha bo'lib, u shaxsning ijtimoiy hayotdagi faoliyatini ham belgilab beradi. Davlat xizmatchilari uchun milliy o'zlikni anglash ayniqsa muhimdir, chunki ular jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi asosiy vakillar hisoblanadi. Agar davlat boshqaruvi xizmatchilari o'zlarida milliy o'zlikni anglab, kasbiy komillikka erishgan bo'lsa xamda milliy qadriyatlarini to'g'ri anglab, ularni o'z faoliyatida qo'llay bilsalar, bu jamiyatning davlat tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, Davlat xizmatchisi davlat nomidan ish ko'rar ekan, demokratik jamiyatda xalqqa xizmat qilishi davlat xizmatining asosiy vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasi davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab, vakolatli idoralar tomonidan amalga oshirilishini belgilar ekan, bu davlat xizmatini faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlovchi ustuvor ahamiyat kasb etuvchi prinsipdir. Shu nuqtayi nazardan, davlat xizmatchilarining faoliyatlari o‘z qonunlarimizda xam aks etganini ko‘rishimiz mumkin. Davlat xizmatchisi milliy o‘zlikni anglashda u o‘zining mustaqil tafakkurga, e‘tiqodga, bunyodkorlik qudratiga, o‘zgarlar va butun borliq oldidagi mas‘uliyat tuyg‘usiga, vatanparvarlik sifatiga ega ekanligi nazarda tutiladi. Har bir davlat xizmatchisi, nafaqat davlat xizmatchilari balki har bir inson o‘ziga “Men kimman?”, “Bu yorug‘ dunyoga nima uchun keldim?”, “Menga ato etilgan buyuk ne‘mat – hayotimni nimalarga safarbar etmog‘im lozim?” “menga berilgan vazifaga vijdonan yondashyapmanmi”deb savol berishi kerak. Bunday savollarga javob qidirgan har bir inson yokida davlat xizmatchisi o‘zlikni anglash va kasbiy komillikka erishgan hisoblanadi. Demak, o‘zlikni anglash, avvalo har bir insonning shaxsi, alohida “men”i bilan bog‘liq. O‘zlikni anglash masalasiga faqat bugun e‘tibor qaratilayotgani yo‘q. Bu boradagi qarashlar insoniyat jamiyatining paydo bo‘lishiga borib taqaladi.

Delfadagi appolon ibodatxonasi devorlariga o‘yib yozilgan va an‘ana bo‘yicha yetti yunon donishmandlaridan biri – spartalik Xilonga tegishli deb hisoblangan “O‘zligingni angla” shiori qadimgi yunon falsafasining o‘zak masalasi bo‘lib qoldi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda “o‘zlikni anglash” tushunchasining ham bir qancha talqini uchraydi. Masalan “o‘zlikni anglash – insoning o‘zini alohida shaxs sifatida butun borliqdan ajrata bilishi, baholashi va qadriyat sifatida anglashini ifodalovchi tushuncha. Milliy o‘zlikni anglash jamiyat, vatan oldida turgan vazifalarni to‘g‘ri xolisona anglash, vatanparvar, millat oldidagi mas‘uliyat tuyg‘usi hamdir. Yana shuningdek, o‘zlikni anglash birinchi galda tarixiy rivojlanib boradigan shakl va ko‘rinishlarda, xar xil darajalarda namoyon bo‘ladi. Birinchi shaklida asosan inson his etish orqali o‘zini tabiatdan, atrof muhitdagi narsa va hodisalardan ajrata biladi. Ikkinchi shakli yanada yuqori darajada namoyon bo‘lib, unda inson o‘zini biror-bir jamoa, u yoki bu madaniyatga tegishli ekanligi orqali anglaydi va nihoyat, uchinchi shaklida, eng yuqori daraja – o‘zini “men” orqali boshqalar nuqtai nazaridan baholashi, erkinligini his etgan holda har bir xatti-harakatiga bo‘lgan mas‘uliyatni his etishi, o‘zi qilayotgan ishlarining to‘g‘ri-noto‘g‘riligi, haq yoki nohaqligini nazorat qila bilishidir [4, – B.12 ].

Davlat xizmatchilarida milliy o‘zlikni anglash va kasbi komillik xamda davlat va jamiyat boshqaruidagi o‘rni haqida M.Bekmurodov tomonidan “Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi” nomli monografiyasida sotsiologiya fani nuqtai nazaridan batafsil ta‘rif berilgan. Milliy o‘zlikni anglash bo‘yicha siyosiy fanlar doktori V.Qo‘chqorov “o‘zlikni anglash” tushunchasi bilan “milliy o‘zlikni anglash” tushunchalarining ma‘no-mazmunini tahlil etadi va quyidagicha izohlaydi: “O‘zlikni anglash kishining borliqda o‘z o‘rnini bilishi, ijtimoiy munosabatlarda o‘z “men”i va hayotiy maqsadlarini boshqa “men”lar hamda ularning hayotiy maqsadlari bilan munosabatida namoyon bo‘ladigan individual jihatlarining idrok etilishi sifatida qaraladi. O‘zlikni anglashning muayyan darajasi milliy o‘zlikni anglashdir. Milliy o‘zlikni anglash – millat va har bir millat vakilining yokida davlat xizmatchisining umumiy madaniy negizga, til, madaniyat, tarixiy meros, ruhiyatga, urf – odat va an‘analarga mansubligini va o‘z o‘rnini idrok etishdir [ 5, – B.37 ].

Milliy o‘zlikni anglash tufayli inson o‘tmishini xotirlaydi, buguni bilan taqqoslaydi, xulosa chiqaradi va shu asosda kelajakka nigoh tashlaydi. Ya‘ni, milliy o‘zlikni anglash insonni shaxs darajasiga ko‘tarib, ma‘naviy axloqiy kamolot sari yetaklaydigan ruhiy kuchdir. Ana shu jihatlar bevosita davlat xizmatchilarining jamiyat va davlatning ma‘naviy rivojlanishida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘ladi. “Davlat xizmatchilarining milliy o‘zlikni anglashi” tushunchasi bir qancha tarkibiy qismlarga bo‘linadi: millatga (etnosga) mansublikni, uning insoniyat taraqqiyotidagi tarixiy o‘rnini anglash; milliy g‘oyaga va qadriyatlarga sadoqat; millatning ehtiyojlari va manfaatlarini anglash, uning rivojlanish yo‘llarini bilish; milliy taraqqiyotga xizmat qilib, jamiyatda fuqaroviy birlikni ta‘minlashga hissa qo‘shish, o‘z kasbiy faoliyatiga vijdonan xolisona yondashish. Milliy o‘zlikni anglash haqida ko‘plab xorijiy olimlar izlanishlar olib borgan ulardan, A.B.Bagdasarova milliy o‘z-o‘zini anglash tushunchasini butun olam nigohi nazarida tahlil qiladi: u davlat

xizmatchilarida milliy o'z-o'zini anglash o'zida ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ta'limiy, estetik, falsafiy, sotsiologik va kasbiy komillikni, namoyon qiladi. [ 6, – S.118 ].

G.Nikishov Milliy o'zlikni anglashning ma'nosini tushuntirishga harakat qiladi: birinchi o'rinda inson o'zligini anglashda har bir insonning alohida ratsional holda yoki aql orqali emas, uni chuqur anglashda, hissiyotda namoyon bo'ladi va uning rivojlanishiga ko'pgina omillar, intuitsiya va sezgi ta'sir ko'rsatadi. Rus tilida u oddiy qalb deb e'tirof etiladi [7, – S.69].

P.I.Kovalevskiyning fikricha, milliy tafakkur intellektual tabiatga ega. «Milliy o'zlikni anglash, – deb yozadi Kovalevskiy, – idrokning akti hisoblanib, unda shaxs o'zini millatning bir qismi deb hisoblaydi. Bu hayot boshlanishining asosini tushunish va maqsadlarning o'zaro uyg'unligi ta'siri bo'lib, unga butun xalq va uning alohida a'zolari kirib ketadi» [8].

G.P.Fedotov millat va milliy o'z-o'zini anglash muammolarini o'rganishda, avvalo biror bir xalqning mavjud bo'lish tarixi, uning davlat qurishga bo'lgan intilishlarini anglash lozim, deb hisoblaydi [9, – S.2].

Shuningdek, ko'plab sotsiologik olimlar o'z tadqiqotlarida davlat xizmatchilarida milliy o'zlikni anglash va kasbiy komillikka erishish haqida ko'plab tadqiqotlar olib borgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy o'zlikni anglash hissi yuqori bo'lgan davlat xizmatchilari o'z kasbiy majburiyatlariga mas'uliyat bilan yondashib, halollik va adolat tamoyillariga rioya qiladi. Shu sababli, davlat xizmatchilari uchun milliy o'zlikni anglash juda muhim hisoblanadi. Davlat xizmatchilarida milliy o'zlikni anglash xamda kasbiy komillik xam muhim hisoblanadi. Jumladan, kasbiy komillik – bu mutaxassisning o'z kasbiga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, shuningdek, ularni doimiy ravishda rivojlantirib borish jarayoni tushuniladi. Davlat xizmatida ishlovchilar uchun bu tushuncha yanada kengroq mazmunga ega bo'lib, nafaqat huquqiy va boshqaruv sohasidagi bilimlarni, balki axloqiy tamoyillarni ham o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda davlat boshqaruvida ishlaydigan mutaxassislar doimo o'z bilim va ko'nikmalarini oshirib borishlari talab etiladi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatida yuqori kasbiy mahoratga ega mutaxassislarning bo'lishi korrupsiyaning oldini olish, davlat tizimiga bo'lgan ishonchni oshirish hamda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, davlat xizmatchilarida kasbiy komillikni shakllantirish va uni milliy o'zlikni anglash bilan uyg'unlashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Kasbiy komillik shuningdek, davlat xizmatchilarining boshqaruv jarayonlarida samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Misol uchun, Yevropa davlatlari tajribasida malakali kadrlarni tayyorlash tizimi maxsus kasbiy tayyorgarlik kurslari va uzluksiz ta'lim tamoyillariga asoslangan. O'zbekiston tajribasida ham davlat xizmatchilarini doimiy ravishda qayta tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Milliy o'zlikni anglash va kasbiy komillik bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. Chunki milliy qadriyatlarni to'g'ri anglagan davlat xizmatchisi o'z kasbiy faoliyatida ham ana shu qadriyatlarga tayanadi. Boshqa tomondan, kasbiy jihatdan yetuk mutaxassisning davlat xizmatidagi faoliyati samarali bo'lishi uchun u milliy manfaatlarni to'g'ri tushunishi va ularni amaliyotga tatbiq eta olishi lozim.

Hozirgi kunda ko'rishimiz mumkinki, milliy qadriyatlarga asoslangan boshqaruv tizimi davlat xizmatchilarining fuqarolar bilan munosabatlarini yaxshilashga, ularning manfaatlariga xizmat qilish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, milliy o'zlikni anglash va kasbiy komillik uyg'unligini ta'minlash davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda muhim vositalardan biri sifatida qaralishi mumkin. Masalan, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda milliy o'zlik va kasbiy komillik uyg'unligi davlat xizmatchilarini tayyorlash tizimida asosiy yo'nalishlardan biri sifatida ko'riladi. Bu davlatlarda milliy qadriyatlar asosida shakllangan davlat boshqaruvi modeli jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda O'zbekistonda ham davlat xizmatining milliy modeli ishlab chiqilayotgani va bu jarayonda milliy o'zlik va kasbiy komillik uyg'unligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilayotgani diqqatga sazovordir Bugungi kunda davlat xizmatchisi, tashabbuskor, bilimdon, yuksak madaniyatli, halol va o'z kasbining ustasi bo'lishi kerak. Bunday xodim har qanday vaziyat va sharoitga to'g'ri yondasha oladi, hodisa va voqealarga dadil, odil va xolisona baho beradi, haqiqiy talab va adolatli ish uslubini vujudga keltiradi, mehribon inson sifatida

katta mavqega ega bo'ladi. "Davlat xizmatchisining o'zini o'zi anglash va kasbiy komillik" tushunchasi haqida, buyuk qomusiy olimiz Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarida o'z davri va keyingi davr davlat xizmatchisi uchun lozim bo'lgan "12 ta fazilat va xislatlar" ni keltirib o'tgan. Asarda keltirilishicha, rahbar shaxs sog'lom, suhbatdoshining fikrlarini tez tushunadigan, fikrini ravshan tushuntira oladigan, nafsini tiya oladigan, adolatli, bilimli, oriyatli, qat'iyatli, o'zini o'zi anglagan, hamda kasbiy komillikka erishgan bo'lishi kerak.

Shu o'rinda davlat arbobi va buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fikrlariga e'tibor qaratsak. "Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami". Ulug' bobomiz bu bilan bizga dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini, xalq g'amini o'ylamay yashaydigan fazilatsiz insonni odamlar qatoriga qo'shib bo'lmasligini ta'kidlaganlar. Biz bilamizki gap davlat boshqaruvi haqida ketganda Buyuk davlat arbobi Amir Temurning "Temur tuzuklari" davlat boshqaruvi va davlat xizmati rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz shart. Unda, ayniqsa, davlat xizmatchilari uchun ko'plab sifatlar keltirilib o'tilgan.

Biz bilamizki, Amir Temur "Kuch – adolatdadir" degan shiorga qat'iy rioya qilgan holda mamlakatni boshqargan. Sohibqiron mazkur shiorga o'zi amal qilish bilan birga vazirlarni ham unga amal qilishga undagan. Vazirlar, va davlat xizmatchilariga qo'yilgan boshqa sifatlar aynan shu shiordan kelib chiqib shakllangan, deyish mumkin. Sohibqiron adolatparvarlik, vatanga sadoqat, qat'iyat kabi fazilatlarni ulug'lagan. Xushmuomalalik, sabr-matonatlilik, odillik kabi sifatlarni o'zida mujassam qilgan Sohibqiron boshqa amaldorlardan ham shunday fazilatlarni talab qilgan.

Jumladan, davlat xizmatchilari o'z faoliyatlari davomida odob-axloqi va fazilatlari muhim o'rin tutadi. Zero, davlat xizmatchisining axloqiy fazilatlarini tarbiyalamasdan, uning shaxsiy va professional qobiliyatini rivojlantirmasdan turib, ulardan samarali faoliyatni kutib bo'lmaydi. Davlat xizmatchisi aholini qiynab kelayotgan muammolar yechimini ta'minlaydigan shaxs bo'lib, u halol va adolatli, xizmat vazifasiga sadoqat va mas'uliyat bilan yondashadigan, umuman insonlar bilan bo'ladigan muomalada har tomonlama o'ylab, muomala qilish qoidalariga rioya qilish fazilatlariga ega bo'lishi lozim.

Davlat xizmatchisida bunday tamoyillarning bo'lishi davlat va jamiyat rivojida muhim omil bo'lib xizmat qilganligini rivojlangan davlatlar tajribasidan ham bilish mumkin. Masalan, "Osiyo yo'lbarisi" deb nom olgan Singapurning rivojlanishida yuqori malakali va axloqiy fazilatlarga ega davlat xizmatchilarining o'rni nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Bu haqda 25 yil Singapur Bosh vaziri lavozimida faoliyat yuritib, o'z mamlakatini qoloq davlatdan dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqqan Li Kuan Yu shunday deydi: "Hukumatda layoqatli vazirlar va ularga yordam bergan yuksak axloqiy fazilatlarga ega davlat xizmatchilarining borligi Singapurning muvaffaqiyatli taraqqiyotini ta'minlashda asosiy, hal qiluvchi omilga aylandi".

Milliy ma'naviyatimizning qadim udumiga ko'ra rahbarning, yurt boshqaruvchining eng asosiy fazilati adolat sanalgan.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, davlat xizmatchisi o'z vazifasini nafaqat ijro etishi, balki uni qanday ijro qilishi ham muhim masala. Uning xalq oldidagi mas'ulligini his qilishida kasbiy salohiyatidan tashqari, uning shaxsiy sifat va fazilatlarini belgilovchi mexanizmlarni shakllantirish lozim. Zero, jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish uchun qonunlarga rioya etish majburiyatga emas, insoniy fazilatga aylanishi lozim hamda davlat xizmatchilarida milliy o'zlikni anglash va kasbiy komillikka erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

## Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Мирзиёев Ш.М. Няти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 63 б.
2. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 1-жилд, – Б.55, 154, 116, 162, 290-291.

3. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 8 августдаги “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги ЎРҚ – 788-сонли Қонуни. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. Қўчқоров В. “Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий ҳаётининг демократиялашиши жараёнида миллий ўзликни англаш муаммоси” сиёсий-фалсафий таҳлил Сиёсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2009. – 12 б.
5. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. – Б.408-409.
6. Багдасарова А.Б. Механизм перерастания национального сознания в националистическое // Журнал «Этнические проблемы современности». Вып. – Ставрополь: издательство СГУ, 1996. – С.118.
7. Никишов Г. Русская музыка как зеркало русского самосознания. // «Русское самосознание»: философскоисторический журнал. СПб., 1998, No 4.8.
8. Ковалевский П.И. Психология русской нации. – СПб: «Граница», 2005.
9. Федотов Г.П. Судьба и грехи России. В 2 т. Т. 2. – СПб., 1992.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-1

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000